

ISLOM AQIDALARI – MA’NAVIY HAYOTIMIZ ASOSI

Murodova Umida Boxodir qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

“O‘zbek filologiyasi” ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi, telefon raqami

+998902805563 elektron pochta umurodova713@gmail.com

*Ilmiy rahbar: **Rasulov Bekzod Boymuratovich***

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

“Milliy g‘oya va falsafa” kafedrasi katta o‘qituvchisi, siyosiy fanlar bo‘yicha

falsafa doktori, telefon: +99899 846-86-25, lawstroy83@mail.ru

Annotatsiya. Islom dini aqidalari va aqidaviy yo‘nalishlari, ularni turlicha talqin qilish Islom dinining obrusizlanishiga, turli e‘tiqod vakillarining g‘arazli maqsadlarda foydalanishiga olib keladi.

Ushbu maqolada Islom dinining Sunniy yo‘nalishidagi asosiy diniy aqidalar va ularning mazmuni tahlil qilindi.

Аннотация. Вероучения и доктринальные направления ислама, их различное толкование приводят к дискредитации ислама и использованию представителей разных конфессий в злонамеренных целях.

В данной статье проанализированы основные религиозные догмы суннитской ветви ислама и их содержание.

Abstract. The creeds and doctrinal directions of Islam, their different interpretations lead to the discrediting of Islam and the use of representatives of different faiths for malicious purposes.

This article analyzed the main religious tenets of the Sunni branch of Islam and their content.

Kalit so‘zlar: aqida, din, Islom dini, iymon, tavhid, muqaddas kitoblar, Qur‘oni Karim, diniy bag‘rikenglik, e‘tiqod.

Ключевые слова: вероучение, религия, ислам, вера, единобожие, священные книги, Священный Коран, религиозная толерантность, вера.

Key words: creed, religion, Islam, faith, monotheism, holy books, Holy Quran, religious tolerance, faith

Kirish

Din azaldan ijtimoiy voqelik sifatida yosh avlodni dunyoqarashini to‘g‘ri shakllantirish va ma‘naviy jihatdan tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Tariximizning har bir bosqichida jamiyat poydevorini mustahkamlash maqsadida ham muayyan diniy e‘tiqod tamoyillariga tayanilgan. Negaki diniy e‘tiqod o‘z qadriyat va ta‘limoti asosida unga ergashuvchilarni o‘z atrofida hissiy ta‘sirini o‘tkazgani holda birlashtiradi. U yoki bu millatning madaniylashuvi, tashqi davlatlarga ijtimoiy-iqtisodiy ta‘siri dinning

ahamiyati bilan chegaralanishini ham unutmash lozim. Dinni to'g'ri tatbiq va talqin qilish ijtimoiylashuvni ta'minlaydi, tinchlikni saqlab, bag'rikenglik asosini tashkil etib, ilm-fan rivojiga hissa qo'shadi. Biroq, undan g'arazli yo'lda foydalanish jamiyat ustunini qulagan holda, ijtimoiy munosabatlarni izdan chiqarib, notinchlikni yuzaga keltiradi. Shunday ekan, jamiyat a'zolarining dinga bo'lgan munosabatlarining o'zgarib borishi ijtimoiy hayot shakl va mazmunining o'zgarishiga ta'siri ko'rsatadi. Aynan shunday jarayonda ma'lum bir dinning xos aqidalari ta'sirlashuvi katta ahamiyatga ega.

Aqida (arab.)-dindorlar uchun majburiy hisoblangan, shakl keltirmasdan, muhokama yuritmasdan e'tiqod qilinishi lozim bo'lgan diniy talablar. Biz uni imon talablari desak ham bo'ladi va uning asosi Qur'onda berilgan, hadislardagi ko'rsatmalar negizida ishlab chiqilib, tartibga solingan. Islom aqidasi musulmon insonni muayyan tushunchalar bilan mustahkam bog'lab turadigan e'tiqodlar yig'indisi, ma'lum bir fikr insonning fikriga aylanib, his-tuyg'ularini yo'lidaydigan va harakatlarini boshqaradigan holga etganda, aqidaga aylangan bo'ladi.

Islom dinidagi aqidalar musulmon insonning e'tiqod yo'nalishini va maqsadlarini belgilab beradi. Hozirgi vaqtda axborot hurujlari avj olgan global jamiyatda har bir diniy e'tiqod vakillari o'zlarining e'tiqodlarini, diniy qarashlarini saqlab qolishi, dindan g'arazli maqsadlarda foydalanishga o'rinishlar qurboni bo'lmasligi muhim ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biridir. Axborotlashgan davrda yoshlarning turli xil virtual ma'lumotlarning ta'siriga tushib qolish ehtimoli yuqori bo'lganligi va ko'plab yoshlar diniy bilimlarni internet orqali o'rganayotganligi bois islom dini aqidalarini rasmiy manbalardan o'rganish va talqin qilish dolzarb masalalardan biridir.

Aqidaning mustahkam bo'lishi e'tiqod qiluvchilarda hayot mazmunini to'g'ri anglashi, maqsadlarida sobit bo'lishi, oila va jamiyatga nisbatan vijdonan munosabatda bo'lishiga muayyan darajada xizmat qiladi. Ya'ni, aqidada mustahkam bo'lgan odam ijtimoiy hayotda ham mustahkam bo'ladi.

Aqidani to'g'rilash va uni mustahkamlash haqida So'fi Ollohyorning quyidagi fikrlari nihoyatda o'rinlidir:

Aqida bilmagan shaytona eldur,
Agar ming yil amal deb qilsa – eldur.¹

Tadqiqot maqsadi.

- Islom aqidalarining bugungi ijtimoiy hayotga ta'sirini o'rganish;
- Aqidaparastlik, ularning diniy va dunyoviy shakllarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi.

¹ <http://old.muslim.uz/index.php/rus/maqolalar/item/23081-a-idada-adashmajlik>

Bir kuni Rasululloh sallolohu alayhi va sallam ko'pchilik bilan suhbatlashib turgan edilar. Bir kishi qoshlariga kelib, salom bergach: "Iymon nadur?",-deb so'radi."Iymon Ollohga, uning maloikalariga, payg'ambarlarining haq ekanligiga, Ollohni qiyomat kunida ko'rishga, o'lgandan keyin tirilishiga ishonmog'ingdur",-deidlar.²

Umar ibn Xattob roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

«Bir kuni Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning huzurlarida edik. Birdan oldimizda oppoq kiyimli, sochlari qop-qora odam paydo bo'ldi. Unda safarning asari ko'rinmas edi. Uni birortamiz tanimas ham edik. U kelib Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning to'g'rilariga o'tirdi. Ikki tizzasini u zotning ikki tizzalariga tiradi. Ikki kaftini sonlari ustiga qo'ydi va: «Ey Muhammad, menga Islom haqida xabar ber», dedi.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Islom: «Laa ilaha illallohu Muhammadur Rasululloh» deb shahodat keltirmog'ing, namozini to'kis ado qilmog'ing, zakot bermog'ing, Ramazon ro'zasini tutmog'ing, agar yo'lga qodir bo'lsang, Baytni haj qilmog'ing», dedilar.

«To'g'ri aytding», dedi u. Biz undan ajablandik. O'zi so'raydi, o'zi tasdiqlaydi. «Menga iymon haqida xabar ber», dedi.

U zot sollallohu alayhi vasallam: «Allohga, Uning farishtalariga, kitoblariga, payg'ambarlariga va oxirat kuniga iymon keltirmog'ing, yaxshiyu yomon qadarga iymon keltirmog'ing», dedilar.³

Islom dinining sunniy yo'nalishida 7 ta aqida bor:

1. Allohning yagonaligiga
2. Farishtalarning borligiga
3. Muqaddas kitoblarga
4. Payg'ambarlarga
5. Oxiratga
6. Taqdirga
7. Inson qazo qilgandan so'ng qayta tirilishiga ishonish.

Yuqorida keltirilgan aqidalar musulmon insonni ma'lum bir narsalar bilan mustahkam bog'lab turadi va bu ilm insonni to'g'ri, sog'lom e'tiqodda bo'lishini ta'minlaydi.

Aqida ilmining ilmining vujudga kelganidan to hozirgi vaqtgacha rivojlanish tarixini umumiy beshta bosqichga ajratib o'rganish mumkin:

1. **Vujudga kelish bosqichi.** Hijriy birinchi asrda va ikkinchi asr boshlarida ba'zi e'tiqodiy masalalar to'g'risida bahs-munozaralar boshlangan. Bu bahs-munozaralarning yuzaga kelishiga ikkita asosiy sabab bo'lgan:

- 1) ko'plab fathlar tufayli turli din, falsafa va mafkuraga ega insonlarning islomni

² Sahihi Buxoriy. 1-jild. Imom Ismoil al-Buxoriy. Arabchadan Zokirjon Ismoil tarjimasi Qomuslar Bosh tahririyati Toshkent 1991

³ <https://islom.uz/iymon/1#block10>

qabul qilganlari yoki musulmonlar bilan aralashib yashay boshlaganlari;

2) Islom olamining ichida juda tezlik bilan o‘zaro ziddiyatli siyosiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanish yuzaga kelgani.

Ushbu sabablar tufayli ayrim e‘tiqodiy masalalarda tortishuvlar paydo bo‘la boshlagan. Ammo bu tortishuvlar dastlab sanoqli masalalar atrofida bo‘lib, ular asosan quyidagilar bo‘lgan:

a) gunohi kabira sodir etgan mo‘min kishi mo‘minligida qoladimi yoki do‘zaxga abadiy mahkum bo‘ladigan kofirga aylanadimi?

b) inson qilayotgan amallarini qadariga ko‘ra majbur bo‘lib bajaradimi yoki ularni mutlaqo o‘z ixtiyori bilan bajaradimi?

v) imomlik, ya‘ni Nabiy sollallohu alayhi vasallam vafotlaridan so‘ng musulmonlarga kim rahbar bo‘ladi va nima asosida bo‘ladi?

2. Kitoblar yozilish hamda mazhablar va firqalar paydo bo‘lish bosqichi.

Hijriy ikkinchi asrning boshlarida musulmonlar orasidagi aqidaviy bahs-munozaralar yangi bosqichga ko‘tarilgan. Aqidaviy masalalar bahs qilinadigan maxsus davrlar paydo bo‘la boshlagan. Bu davralarning etakchilari, ularga ergashuvchilar hamda bir-biridan farqli aqidaviy qarashlar yaqqol ko‘rina boshlagan. Bularning samarasi o‘laroq turli nomlar bilan ataladigan firqalar shakllana borgan. Ushbu turli noto‘g‘ri e‘tiqodlarni da‘vo qilib chiqqan xilma-xil firqalarning xurujlaridan Ahli sunna val-jamo‘a e‘tiqodini ximoya qilib chiqqan ash‘ariya va moturidiya mazhablari yuzaga kelgan.

3. **Rivojlanish va falsafa bilan aralashish bosqichi.** Hijriy oltinchi asrdan to‘qqizinchi asr oxirlarigacha bo‘lgan davrlar. Bu davrlarda aqidaviy masalalarning oralari ajratilib, tartibli ravishda yozishga o‘tilgan. Natijada aqida ilmiga oid turli asarlar ta‘lif etilib, aqidaviy madrasalar shakllanib borgan. Shuningdek, Islom dini e‘tiqodiga xilof bo‘lgan falsafiy qarashlarga raddiyalar ham qilingan. Natijada aqida kitoblari ichiga falsafiy qarashlar ham aralashib borgan.

4. **Turg‘unlik bosqichi.** Hijriy o‘ninchi asrdan o‘n ikkinchi asrgacha. Ushbu davrlar oldingi va keyingi bosqichlarga nisbatan aqid ilmi barqaror bo‘lgan paytlar bo‘lgan. Bu davrlarda asosan oldingi asrlarda yozilgan matnlarga sharhlar va hoshiyalar yozilgan.

5. **Yangi fikrlar paydo bo‘lgan bosqichi.** Hijriy o‘n ikkinchi va o‘n uchinchi asrlar. Bu davrlarda Qur‘on va sunnatga haqiqiy ergashish da‘vosi bilan oldingi bosqichlardagidan farqli yangi fikrlar paydo bo‘lgan.⁴

Dindagi ayrim shar‘iy hukmlar o‘zgarishi mumkin, ammo aqidalar, sof e‘tiqod va uning hukmi o‘zgarmaydi. Xususan, Allohning yagonaligi, farishtalar, jannat va do‘zaxga imon keltirgan insongina chin musulmon bo‘la oladi. Negaki, insonning ikki dunyodagi saodati aynan aqidasiga bog‘liq:

⁴ <http://old.muslim.uz/index.php/kutubxona/item/17578>

1. “Ayt: Alloh yagonadir”. (Ixlos surasi 1-oyat) Alloh Subhanahu taoloning sifati yagonadir. U zotning sifatlari bilan hech bir narsa sifatlanmaydi. U O‘zining o‘xshashi yo‘qligi bo‘yicha ham, amalda ham yagonadir. “Alloh taolo zoti va sifatlarida yagonadir, qadimdir (mavjudligining avvali yo‘q), doimdir (mavjudligining nihoyasi yo‘q), tirikdir, biluvchidir, qodirdir, ixtiyorlidir (istaganini qiladi), so‘zlaguvchidir, eshituvchidir, ko‘ruvchidir. Alloh taolo jism ham, javhar (ya‘ni modda) ham, araz (rang, hid kabi) ham emas. Uning surati va shakli yo‘q. Alloh taolo biror tomonda va makonda emas. Zero, U Zot makon va tomonni O‘zi yaratgan. Alloh taoloning borligi zamon bilan belgilanmaydi. Alloh taolo ismlari, zotiy va fe‘liy sifatlari bilan hamisha bo‘lgan va bo‘ladi. Alloh taoloning birorta ismi va sifati yangi paydo bo‘lmagan”⁵;

2. Musulmon kishi farishtalar (arabchada- malak, maloika) va yovuz kuchlar (jinlar) mavjudligiga ishonishi lozim. Ularning barchasi Allohtomonidan yaratilgan bo‘lib, uning irodasini ifoda etuvchi jisimsiz mavjudotlardir va ularga turli vazifalar yuklatilgan. Farishtalar Alloh taoloning hukmini bandalarga etkazish, Arshni ko‘tarib turish, jannat va do‘zax ishlarini bajarish, odamlarning ishlarini kuzatib, amallarini yozib yurish, insonni doimiy muhofaza qilish, ruhlarni qabz qilish va boshqa vazifalarga birlashtirilgan. Jabroil, Mikoil, Isrofil, Malakul mavt (Azroil) alayhissalomlar farishtalarning ulug‘laridir. Jabroil alayhissalom vahiy etkazishga, Mikoil alayhissalom Alloh bergan rizqlarni tasarruf qilishga, Isrofil alayhissalom qiyomatdan ogoh etuvchi surni chalishga, Azroil alayhissalom jonlarni qabz qilish vazifasidadir;

3. Qur‘on muqaddas bitiklarning eng so‘nggisidir, undagi har bir ibora muqaddas hisoblanadi, u Xudo tomonidan vahiy qilingan va unga shak keltirish mumkin emas.

Iymonning yana bir sharti Alloh taoloning O‘z payg‘ambarlariga (rasullari va nabiyalariga) nozil qilgan kitoblariga ishonishdir. Alloh taoloning hamma kitoblari Uning kalomi (so‘zi) va vahiyidir. Alloh taolo ushbu kalomni yaratgan emasdir, balki bu Allohning azaliy sifatlaridandir. Ularning hammasi bir kalomdir, ibron, arab va boshqa tillarda nozil qilinganligi, jumllarining tuzilishi jihatidan, o‘qish va eshitish jihatidan bir nechta. Shunga ko‘ra nozil bo‘lgan kitoblarning eng afzali Tavrot, Injil, Zabur va Qur‘oni Karimdir. Bu to‘rt kitobning eng afzali Qur‘oni Karimdir. Qur‘oni Karim nozil bo‘lgach qolgan barcha kitoblarni o‘qish va yozish bekor bo‘lgan;

4. Payg‘ambarlar ilohiy haqiqatni bandalarga etkazadilar, ularni va‘z, nasihat bilan haq dinga va yaxshi ishlarga chaqiradilar. Qur‘onda 25 nafar payg‘ambarning ismlari qayd etilgan, biroq musulmonlar Muhammadni barcha payg‘ambarning payg‘ambari, deb hisoblaydilar.

Payg‘ambarlarning barchasi Odam naslidan, gunoh, kufr, tug‘yondan saqlangan, pok, aql va ibodatda komildirlar. Ularning barchasi bir dinda – Islom dinidadir. Zero,

⁵ <https://islom.uz/iymon/1#block10>

ular o‘z qavmlarini faqat Alloh taolaga ibodat qilishga, Uning uluhiyatiga, rububiyatiga, ism va sifatlariga shirk keltirmaslikka chaqirganlar⁶;

5. Oxiratda (arabchada- oxirgi kun, dunyoning tugash kuni degan ma‘nolarni anglatadi) Alloh va u xohlaganidan boshqa hech narsa qolmaydigan kun. Uning qacho bo‘lishini faqat Alloh biladi.

Imom Buxoriy rivoyat qilgan hadisda: «Jabroil alayhissalom u zot sollallohu alayhi vasallamga «Menga iymonning xabarini bering», deganlarida Payg‘ambarimiz: **«Allohga, Uning farishtalariga, kitoblariga, payg‘ambarlariga, oxirat kuniga va yaxshi-yomon qadarga iymon keltirish»**⁷ deb javob berganlar;

6. Qur’onda yozilishicha, “Alloh kimni hidoyat qilishni istasa, uning ko‘nglini islom uchun keng qilib qo‘yar. Kimni adashtirishni istasa, uning ko‘nglini “tor va tajang qilib qo‘yar”. Allohning irodasiga musulmon so‘zsiz itoat etishlari shart.

Hamma narsa va harakat, jumladan, inson xohishi va ixtiyorining yaxshi yoki yomon, qachon yoki qaerda va qancha bo‘lishining bari Alloh taoloning irodasi, ilmi va yaratishi bilan bo‘ladi. Inson Alloh taolo unda yaratgan ixtiyor bilan tanlagan amaliga yarasha yaxshilik bo‘lsa – savob oladi, yomonlik bo‘lsa – gunohga botadi.;

7. Allohning irodasi bilan qayta tirilgan odamlarning “Mahshar yeri” da to‘plangan kuni qiyomat deb ataladi. Bu kunda har bir inson o‘z qilmishiga loyiq mukofot, ajr oladi.

O‘lishdan keyin tirilishning muhim hikmati bor. Modomiki, dunyoga kelgan ekanmiz, bu erda bir qancha islomiy, insoniy vazifalarimizni o‘tashimiz, Alloh buyurganlarini bajarishimiz kerak bo‘ladi. Bunga osiylik qilganlar esa Allohning g‘azabi va jazosiga duchor bo‘ladi. Oxiratdagi baxtli-saodatli va osoyishta hayot iymonimizga bu dunyodagi qilgan amallarimizga, savobli, xayrli ishlarimizga bog‘liq.

Qur’oni Karimda **«Sizlarni undan yaratdik, unga qaytarurmiz va yana bir bor undan chiqarib olurmiz»**, deyilgan (Toha surasi, 55-oyat). Buni inkor qilish - Qur’onni inkor etishdir, bu esa aniq kufrdir. O‘limdan so‘ng qayta tirilishga ishonish iymon shartlaridan biridir.⁸

Insonlar ongiga aqida tushunchasi to‘g‘ri singib ta’sir etar ekan, diniy soha qatori ma’rifiy, madaniy va ijtimoiy sohalar yuksalib, dinga bo‘lgan munosabat ijobiy tomonga o‘zgaradi. Buning natijasi o‘laroq shuni ko‘rsatishimiz mumkinki, xususan, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi diniy sohadagi eng muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Diniy ta’lim muassasalari 1998-yildan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan qayta ro‘yxatdan o‘tkazilib, barcha madrasalar o‘rta maxsus islom yurti deb ataladigan bo‘ldi. Bugungi kunda respublikada 10 ta diniy ta’lim muassasasi, Toshkent Islom instituti va 9 ta o‘rta maxsus islom bilim yurtlari faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Prezidentimiz tashabbusi

⁶ <https://islom.uz/iymon/1#block10>

⁷ <http://old.muslim.uz/index.php/kutubxona/item/17578>

⁸ <https://islom.uz/iymon/1#block10>

bilan 1999-yil O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Toshkent Islom universitetining tashkil etilishi yurtimiz tarixi zarvaraqlarida oltin harflar bilan muhrlanib qoldi. Jumladan, diniy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini yanada oshirish, o‘quv arayoniga oid me’yoriy hujjatlarni yagona shaklga keltirish maqsadida 2013-2016-yillar davomida 9 ta nizom, 8 ta tartib va yo‘riqnomalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilindi.

Aqidaparastlik-kishilarning qalbi va ongiga mafkuraviy tazyiqlar asosida singdirilib, e’tiqod darajasiga ko‘tarilgan dunyoqarash shakllaridan biri. Aqidaparastlikning dunyoviy shakllariga ateizm, millatchilik, kommunizm va boshqalarni misol keltirish mumkin. Diniy e’tiqodning yo‘nalishidan ko‘r-ko‘rona yuz o‘giruvchi bu “ta’limotlar” millatning ma’naviy barqarorligiga va jamiyatning xavfsizligiga zimdan o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Misol uchun, Sunniy aqidasi bosh ustuni bo‘lgan tavhidning ixtilofi bo‘lgan ateistik tal’imotga ergashuvchilar (ateist deb ataganlar) dunyo miqyosida 9 % ni tashkil etadi, bu statistik ma’lumot o‘quvchini hayratda qoldirmasligi mumkindir, biroq uning islomiyatga va individning shaxsiyatiga ichki va tashqi zarar deb qabul qilish lozim, zero ishonch ertangi kunning umididir. Bundanda yomoni shuki, aynan din ichidagi “dindorlik”, ya’ni aqidaparastlikning diniy salbiy ta’sirlarini vahhobiylik, “Hizbulloh”, “Alqoida” va boshqalar norasmiy diniy harakatlar faoliyatida ko‘rishimiz mumkin. Ularning g‘oyalari aqidalarni makon va zamondan ajratgan holda anglagan, dinning asl mohiyatini tushunib etmagan g‘oyaviy-makuraviy jarayon natijasidir. Aqidaparastlik nafaqat dinda, balki boshqa ijtimoiy sohalar rivojiga ham jiddiy to‘siq bo‘lishi mumkin. Aqidaparastlikning obyekt, albatta, diniy va dunyoviy bilimga etarlicha ega bo‘lmagan va uni to‘g‘ri talqin qilmagan shaxslardir.

Islom dini aqidalarini to‘g‘ri anglash aqidaparastlikning turli salbiy ta’siriga tushmaslik, har xil siyosiy maqsadlar uchun jamiyat ijtimoiy hayotini buzmaslik, insonlarning tinch va osuda hayot kechirishlari uchun ham muhimdir.

Diniy bag‘rikenglik davlat tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanayotgan bugungi davrda har bir musulmonning o‘z e’tiqodiga sodiq bo‘lishi, diniy tushunchalarni to‘g‘ri talqin qilishi orqali yurt tinchligi va halqimizning farovonligiga o‘z hissasini qo‘shgan bo‘ladi. Tolerantlik g‘oyalari nuqtai nazaridan yondashish asosida har bir e’tiqod egasining diniy qarashlarini hurmat qilish va Islomdagi iymon talablarini to‘liq ado etish orqali chin musulmon bo‘lamiz.

Xulosa

Jamiyatdagi o‘zgarishlar ko‘lamiga qo‘shilib, oqim yo‘nalishini aniqlab beradigan, undagi ham ijobiy ham salbiy oqibatlarni yaqqol yuzaga chiqaradigan narsalarning asosida inson yotadi. Ishonch insonning ehtiyojlarini qondiruvchi, ertangi kun uchun umid va harakatlantiruvchi kuchdir. Shu tuyg‘u bir individda mavjud ekan, nafaqat o‘ziga, balki o‘zgalarga ham ijobiy yoki salbiy ta’sirini o‘tkaza oladi. Dinga

e'tiqodi sof bo'lgan, islomiy ta'limotlarni hayotining dasturilamali qilib olgan har qanday shaxs jamiyatning ko'rkidir. Shunday ekan har bir shaxs o'z dini chegarasida huquqiy va ma'naviy dunyoqarashini kengaytirishi bilan bir qatorda foydasini jamiyat bilan bo'lishishi va yomonini bartaraf etishga harakat qilish lozim. Din ma'naviy e'tiqod sifatida inson tarbiyasiga adolat va insoniylik omillari ustuvor bo'lishiga imkon berar ekan, har birimiz buni yoddan chiqarmasligimiz lozim.

Adabiyot va manbalar:

1. Sahihi Buxoriy. 1-jild. Imom Ismoil al-Buxoriy. Arabchadan Zokirjon Ismoil tarjimai. Qomuslar Bosh tahririyati, Toshkent, 1991
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Sunniy aqiydalar. «SEMURG' MEDIA» MChJ, 2007.
3. <http://old.muslim.uz/index.php/rus/maqolalar/item/23081-a-idada-adashmajlik>
4. <https://islom.uz/iymon/1#block10>
5. <http://old.muslim.uz/index.php/kutubxona/item/17578>